

“O‘zbekiston pochta” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabarnoma

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 5 dekabr kuni soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish tizimi **www.evotuz** orqali o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatga olish soat 09:00 dan 10:55 gacha amalga oshiriladi. Umumiy yig‘ilish o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun jamiyat aksiyadorlari reestri 2024-yil 8-noyabr holatiga va umumiy yig‘ilishida qatnashish uchun 2024- yil 29-noyabr holatiga tuziladi.

Jamiyatning elektron pochta manzili: info@pochta.uz.

Yig‘ilish kun tartibi:

1. “O‘zbekiston pochta” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.
2. “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyatining Kuzatuv kengashi a‘zolarini rag‘batlantirish to‘g‘risida” Nizomga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida.
3. “O‘zbekiston pochta” AJ Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zosiga to‘lanadigan asosiy va qo‘shimcha mukofot pullari miqdorini belgilash to‘g‘risida.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qatnashish va ovoz berish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillarida esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘lishi lozim.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishda qatnashish va kun tartibidagi masalalar bo‘yicha masofadan turib ovoz berish uchun **id.gov.uz** da belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tishlari shart. Elektron ovoz berish **www.evotuz** veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi bo‘yicha ma‘lumot va hujjatlar bilan “O‘zbekiston pochta” AJ bosh ofisida ushbu e‘lon berilgan kundan boshlab yig‘ilish o‘tkaziladigan kunga qadar soat 10:00 dan 17:00 gacha yoki **www.evotuz** veb-sayti orqali tanishish mumkin.

Ma‘lumot uchun telefon: +998 71 232-00-33

“O‘zbekiston pochta” AJ Kuzatuv kengashi